



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 6 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 6

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 6



ТОШКЕНТ-2025

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Муртазаева Рахбар Хамидовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Джураева Нилуфар Далибаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич
тарих фанлари доктори,
профессор, академик,
Ўзбекистон Миллий университети

Бобожонова Дилором Бобожонова
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон жаҳон тиллари
университети

Юнусова Хуршида Эркиновна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Аширов Адхам Азимбаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Агзамова Гулчехра Азизовна
тарих фанлари доктори, профессор,
ЎзР ФА Тарих институти

Бурдиашвили Майя
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Кожакеева Ляззат Темировна
тарих фанлари доктори, доцент,
Хотин-қизлар давлат педагогика
университети

Аминова Азиза Марковна
тарих фанлари доктори, доцент,
Навоий давлат педагогика институти

Ульжаева Шохистахон Мамажоновна
тарих фанлари доктори,
Тошкент ирригация ва кишлок
хужалигини механизациялаш
муҳандислари институти
Миллий тадқиқот университети

Худайқулов Тулқин Дўстбоевич
Тарих фанлари доктори (DSc)
Шаҳрисабз дала педагогика институти

Гофоров Шокир Сафарович
тарих фанлари доктори, профессор
Самарқанд давлат университети

Эргашева Юлдуз Алимовна
Тарих фанлари доктори, профессор,
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт
институти

Халикова Раҳбар Эргашевна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент давлат техника университети

Ишанходжаева Замира Райимовна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Эшов Боходир Жўраевич
тарих фанлари доктори, профессор
Қариш давлат университети

Маҳкамova Надира Раҳмановна
тарих фанлари доктори, профессор,
Тошкент ахборот технологиялари
университети

Кебадзе Мадонна
тарих фанлари доктори,
Телави давлат университети

Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна
тарих фанлари доктори, доцент,
Нукус давлат педагогика институти

Мустафасева Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари доктори
Ўзбекистон Фанлар академияси

Ерметов Аваз Абдуллаевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович
тарих фанлари доктори, профессор,
Андижон давлат университети

Расулов Абдуллажон Нуридинович
тарих фанлари доктори, профессор
Наманган давлат университети

Ковалев Борис Николаевич
тарих фанлари доктори, профессор
Санкт-Петербург Тарих институти

Кобзева Ольга Петровна
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Ауанасова Алима Мусировна
тарих фанлари доктори, профессор,
Қозогистон давлат тарихи институти

Бегалинова Калимаш Капсамаровна
фалсафа фанлари доктори, профессор,
Қозогистон Миллий университети

Хайдаров Муродилла Махмуталиевич
тарих фанлари доктори, профессор,
Ўзбекистон Миллий университети

Тожибоев Музаффар Турдибоевич
тарих фанлари доктори, профессор,
ИИВ Академияси

Алиева Лале
тарих фанлари доктори,
Озарбайжон давлат университети

Сайнова Камола Давляталиевна
тарих фанлари доктори, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исмаилова Алмаз
тарих фанлари доктори,
Догистон мустақил университети

Иноятова Диларам Маниглиевна
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор
Ўзбекистон Миллий университети

Таниева Гулдона Мамановна
тарих фанлари доктори, в.б.профессор,
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий
педагогика университети

Дорошенко Татьяна Ивановна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Бабаджанова Нодира Абдуллаевна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Ширванова Тарана Амирага кызы
тарих фанлари номзоди, доцент,
Азербайдон давлат
иқтисодиёт университети

Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Гулистон
давлат педагогика институти

Нуруллаева Шоира Кушназаровна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Урганч давлат университети

Толибоева Нодира Одилжоновна
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон
жаҳон тиллари университети
Масъул котиб

Теймураз Ахалмосулишвили
тарих фанлари номзоди, профессор,
Телави давлат университети

Джоробекова Айнур Эшимбековна
тарих фанлари номзоди, профессор,
Қозогистон дипломатия академияси

Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети

Исаков Бахадир Нигматуллаевич
тарих фанлари номзоди,
Ўзбекистон давлат жаҳон
тиллари университети

Холмуродов Дилшод Рашидович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), Жиззах давлат
педагогика университети

Одилов Аброр Анварович
тарих фанлари номзоди, доцент,
Ўзбекистон Миллий университети
Масъул котиб

Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
Наманган давлат университети

Алимардонов Отабек Қудратович
тарих фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доценти
Ўзбекистон Миллий университети

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Nilufar Djurayeva SOVET HOKIMIYATINING IJTIMOIIY - IQTISODIY SIYOSATIDA XOTIN-QIZLAR TASHKILOTLARINING MAQSAD-VAZIFALARI.....	5
2. Guldonga Taniyeva O'ZBEKISTON ZIYORAT TURIZMIDAGI O'ZIGA XOSLIK: O'TMISH VA BUGUN.....	15
3. Hikmatjon Avezov O'ZBEKISTONNING MUSTAQIL DAVLATLAR HAMDO'STLIGI BILAN ATROF-MUHIT HIMOYASI SOHASIDAGI HAMKORLIK TARIXI.....	20
4. Iskandar Samadov XORAZM XALQ SOVET RESPUBLIKASI (XXSR)DA YER-SUV MASALASI VA PAXTACHILIKNING QAYTA TIKLANISHI.....	27
5. Фируза Абдюсупова В ПОИСКАХ НЕИЗВЕДАННОГО: РУССКИЕ ЭКСПЕДИЦИИ И РАЗВЕДЫВАТЕЛЬНЫЕ ПОХОДЫ В ПАМИРЕ (XIX BEK).....	34
6. Nasiba Narzullayeva SOVET DAVLATI SIYOSATIDA XORIJDA TA'LIM OLGAN O'ZBEK XOTIN- QIZLARINING QATAG'ON QILINISHI.....	41
7. Istora Jo'rayeva XOTIN-QIZLAR MAVZUSINING YORITILISHIDA AYRIM MULOHAZALAR.....	50
8. Muslima Makhmudovna Bazarova THE ACTIVITY OF SHELTERS IN UZBEKISTAN.....	55
9. Diyora Chorshanbiyeva YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLAR SIYOSATINING SHAKLLANISHI.....	60
10. G'unchaxon Baxodirovna Alimova O'ZBEKISTONDA DINIY TA'LIM OLIISH SOHASI YO'NALISHLARI VA UNING S IFATINI OSHIRISHGA QARATILGAN ISLOHOTLAR.....	65
11. Mohira Matnazarova KO'CHMANCHI CHORVADORLAR HAYOTINING YOZMA MANBALARDAGI INTERPRETATSIYASI.....	71
12. Iroda Tishabayeva 1950–1970 YILLARDA O'ZBEKISTON MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA BOLALAR OVQATLANISHINI TASHKIL ETISH MASALALARI.....	76



Diyora Chorshanbiyevna Chorshanbiyeva,
Denov tadbirkorlik va pedagogika institute,
mustaqil izlanuvchi

YANGI O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR SIYOSATINING SHAKLLANISHI

For citation: Diyora Ch. Chorshanbiyeva. THE FORMATION OF YOUTH POLICY IN THE NEW UZBEKISTAN. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 6, pp.60-64

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15806097>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Yangi O‘zbekiston davrida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblangan yoshlar siyosatining shakllanishi, uning huquqiy asoslari, amaliy natijalari va istiqbollari tahlil qilinadi. Ikkinchi hukumat davrida yoshlar siyosatida olib borilgan ishlar haqida to‘xtamlar hamda shuningdek, mazkur siyosatning jamiyat hayotidagi o‘rni va ijtimoiy-siyosiy faollikni oshirishdagi roli yoritilgan.

Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan yoshlar siyosatining mazmun-mohiyati, asosiy yo‘nalishlari va qonun hujjatlari tahlil qilinadi. Maqolada yoshlar bilan ishlash uchun qabul qilingan davlat dasturlari, qonun hujjatlari misollar va amaliy ijrolar asosida ko‘rib chiqiladi. “Yoshlar daftari”, “Yoshlar akademiyasi”, “Yoshlar press klubi”, “Yoshlar parlamenti” kabi tizimlar orqali yoshlarga yaratilayotgan sharoitlar chuqur tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: Yangi O‘zbekiston, yoshlar siyosati, islohotlar, BMT, Yoshlar daftari, “El-yurt umidi” jamg‘armasi, ta’lim, bandlik, innovatsiya.

Диёра Чоршанбиевна Чоршанбиева,
Институт предпринимательства и педагогики Денова
Самостоятельный исследователь

ФОРМИРОВАНИЕ МОЛОДЕЖНОЙ ПОЛИТИКИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируется формирование молодежной политики, которая считается одним из приоритетных направлений государственной политики в эпоху Нового Узбекистана, ее правовые основы, практические результаты и перспективы. Также освещена работа, проведенная в молодежной политике во время второго правительства, а также роль этой политики в жизни общества и роль повышения социальной и политической активности.

Анализ сущности, основных направлений и правовых основ молодежной политики, реализуемой в Новом Узбекистане. В статье на примерах и практических реализациях рассматриваются государственные программы и законодательные акты, принятые в сфере работы с молодежью. Условия, созданные для молодежи, глубоко анализируются с помощью

таких систем, как “Молодежная тетрадь”, “Молодежная академия”, “Молодежный пресс-клуб” и “Молодежный парламент”.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, молодежная политика, реформы, ООН, Молодежный регистр, фонд “Эл-юрт умиди”, образование, занятость, инновации.

Diyora Chorshanbiyevna Chorshanbiyeva,
Denov Institute of Entrepreneurship and Pedagogy
Independent researcher

FORMATION OF YOUTH POLICY IN THE NEW UZBEKISTAN

ABSTRACT

This article analyzes the formation of youth policy, which is considered one of the priority directions of state policy in the era of New Uzbekistan, its legal foundations, practical results, and prospects. It also highlights the work carried out in youth policy during the second government, as well as the role of this policy in society and its contribution to enhancing social and political activity.

The essence, main directions, and legal foundations of the youth policy implemented in New Uzbekistan are examined. The article discusses state programs and legislative acts adopted in the field of youth engagement, using examples and practical implementations. The conditions created for youth are thoroughly analyzed through systems such as the “Youth Notebook,” “Youth Academy,” “Youth Press Club,” and “Youth Parliament.”

Keywords: New Uzbekistan, youth policy, reforms, UN, Youth Register, “El-yurt umidi” Foundation, education, employment, innovations.

Dolzarbli:

Bugungi globallashuv va innovatsiyalar jarayonida har qanday jamiyatning taraqqiyoti, avvalo, uning yoshlari qanday tarbiya olayotgani, qanday rivojlanishga ega ekani va ijtimoiy-siyosiy hayotda qay darajada faol ishtirok etayotgani bilan bevosita bog'liq. Shu ma'noda, Yangi O'zbekiston yoshlar siyosatining rivojlanishi masalasida katta ahamiyat kasb etadi.

“Yosh kelajagimiz” shiori ostida olib borilayotgan ishlar bugun har bir soha va hududda konkret natijalar berayotgani, yoshlar uchun ta'lim, bandlik, tadbirkorlik, ijtimoiy himoya, siyosiy faollik kabi yo'nalishlarda keng imkoniyatlar yaratib berilayotganiga misol bo'la oladi.

Ushbu mavzuni o'rganish orqali biz nafaqat yoshlarga oid davlat siyosatining amaldagi mexanizmlarini tahlil qilamiz, balki uning istiqbolini kuchli va zaif tomonlarini aniqlash, tahlilda ta'minlash uchun ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkoniga ham ega bo'lamiz. Bu yo'nalishdagi mavjud muammolar sabablari va ularni yechish yo'llari haqida tahliliy fikr yuritish bugungi kunda katta ahamiyat kasb etadi. Shu bois, Yangi O'zbekistonda yoshlar siyosatini o'rganish, uni ilmiy asosda tahlil qilish va unga oid tarixiy, huquqiy, siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni chuqur tahlil etish – zamonaviy O'zbekiston taraqqiyotini ta'minlash yo'lidagi muhim jarayonlardan biridir.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlar yangi davr – Yangi O'zbekiston davrini boshlab berdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan 2016 – 2021-yillarda yoshlar siyosatiga doir 5 ta qonun va 55 ta qonunosti hujjati qabul qilindi. 2016-yilda qabul qilingan “Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonunida yoshlarga oid davlat siyosati yoshlarni ijtimoiy jihatdan shakllantirish va ularning intellektual, ijodiy va boshqa yo'nalishdagi salohiyatini kamol toptirish uchun sharoitlar yaratishga xizmat qilishi alohida ta'kidlanib, amalga oshirilishi lozim bo'lgan chora-tadbirlar qonun bilan mustahkamlandi[1].

Bu davrda yoshlar bilan ishlash, ularning manfaatlarini himoya qilish, ta'lim, bandlik, innovatsiya va ijtimoiy faolligini qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ayni paytda yoshlar bilan ishlashning institutsional va huquqiy

bazasi yaratilib, zamonaviy mexanizmlar ishlab chiqilmoqda. Yoshlarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish, demokratik davlat qurish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonlarida ularning faolligini oshirish; yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlovchi, qat'iy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarash va chuqur bilimlarga ega bo'lgan vatanparvar yoshlarni tarbiyalash, ularda turli mafkuraviy tahdidlarga qarshi immunitetni shakllantirish; yoshlarni ijtimoiy himoya qilish, zamonaviy kasb-hunarlarini puxta egallashlari uchun munosib sharoitlar yaratish, ularni ish bilan ta'minlash va tadbirkorlikka jalb qilish; iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishga qaratilgan ishlarni tizimli yo'lga qo'yish; yoshlarni jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishga keng jalb etish, yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish; voyaga yetmaganlar va yoshlar o'rtasida huquqbuzarlik va jinoyatlar sodir etilishini oldini olish; barkamol avlodni tarbiyalashda ommaviy axborot vositalari va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish yoshlar siyosatining asosiy yo'nalishlari hisoblanadi.

Metodlar:

Maqolada huquqiy hujjatlar tahlili, statistik ma'lumotlar tahlili, kontent-analiz va qiyosiy metodlar qo'llanildi. Asosiy e'tibor 2016 – 2024-yillarda qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar, davlat dasturlari va yoshlar bilan ishlash sohasidagi amaliy natijalarga qaratildi.

Tadqiqot natijalari:

So'nggi yillarda mamlakatimizda yoshlar bilan ishlashning noyob tizimi yaratildi. Shu asosda farzandlarimizni zamonaviy kasb-hunarlariga o'qitish, bandligini ta'minlash, bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasida muhim natijalarga erishilmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2024-yil 18-iyulda qabul qilgan "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz uch yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qarorida ushbu samarali va ta'sirchan tizim mohiyatini ochib berish zarurligi ta'kidlangani bejiz emas. Chunki bugun mamlakatimizda ayni shu tizim asosida amalga oshirilgan ibratli ishlar O'zbekistonning yoshlar siyosati ko'plab davlatlar uchun andoza bo'lishga munosibligidan dalolat beradi[2].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev BMTning 72-sessiyasida so'zlagan nutqida "Sayyoramizning ertangi kuni, farovonligi farzandlarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishi bilan bog'liq. Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o'z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratishdan iborat" deb ta'kidladilar[3].

Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga qaraganda, 2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra, O'zbekistonning doimiy aholisi soni 36 million 963 ming kishidan oshgan bo'lib, 14 – 30 yoshgacha bo'lgan navqiron insonlar soni 9 million 600 ming nafarni tashkil etgan. Ya'ni, mamlakatimiz boshqa sohalar qatori nufus jihatidan ham, mehnatga layoqatli yoshlarning ko'pligi nuqtayi nazardan ham katta davlatga aylanmoqda [4].

Yoshlarga qaratilgan e'tiborning yana bir dolzarb masalalaridan biri shundaki, 2023-yil qabul qilingan yangi tahrirdagi konstitutsiyada ham yoshlar huquqlari haqida norma qabul qilindi. Asosiy qonunimizning alohida bobi – XIV bob "Oila, bolalar va yoshlar" deb nomlandi hamda undan yoshlarga oid qator normalar o'rin oldi. Bunday yangicha yondashuv, albatta, Yangi O'zbekistonda yoshlar siyosati ustuvor ekanligining talabi va taqozosidir. Yoshlarga davlat tomonidan berilayotgan imkoniyatlar albatta ma'lum bir normativ-huquqiy hujjat yoki biror qonunda aks etsagina yoshlar huquqlari deb e'tirof etishimiz mumkin. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 79-moddasiga binoan yoshlar quyidagi huquqlarga ega:

- davlat yoshlarning shaxsiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik huquqlari himoya qilinishini ta'minlaydi, ularning jamiyat va davlat hayotida faol ishtirok etishini rag'batlantiradi;

- davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta'lim olishga, sog'lig'ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo'lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi[5].

Respublikada yoshlar siyosatini huquqiy asosda tartibga soluvchi bir qator muhim hujjatlar qabul qilindi. Xususan:

- 2016-yilda “Davlat yoshlar siyosati to‘g‘risida”gi Qonun yangi tahrirda qabul qilindi [6];
- 2017-yilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–3047-son qarori bilan Yoshlar ishlari bo‘yicha agentlik tashkil etildi [7];
- “Yoshlar daftari” joriy etilib, yoshlarning ehtiyojlariga individual yondashuv tizimi shakllandi [8].

Shuningdek, “Yoshlar – kelajagimiz” jamg‘armasi doirasida minglab yoshlar o‘z biznesini boshlash uchun imtiyozli kreditlar va grantlar oldilar. “Yoshlar mehnat guzari” va “Yoshlar sanoat zonolari” tashkil etilishi orqali amaliy ko‘mak kuchaydi.

“Prezident maktablari”, “Ijod maktablari”, “Yoshlar texnoparklari”, “Bir million dasturchi” kabi tashabbuslar yoshlarni ta‘lim va zamonaviy kasblarga yo‘naltirishda muhim rol o‘ynamoqda. Bundan tashqari, “El-yurt umidi” jamg‘armasi orqali iqtidorli yoshlarning xorijiy oliy ta‘lim muassasalarida tahsil olishi rag‘batlantirilmoqda [9].

Yoshlar orasida siyosiy va ijtimoiy faollikni kuchaytirish borasida Yoshlar parlamenti, Yoshlar masalalari bo‘yicha jamoatchilik kengashlari, “Yoshlar ovozi” platformasi kabi mexanizmlar yoshlarning davlat boshqaruvi va fuqarolik jamiyatidagi ishtirokini oshirdi.

Yoshlar siyosati endilikda faqat rasmiy ko‘rsatmalarga asoslanmagan, balki real hayotga tatbiq etilayotgan tizimli amaliyotga aylangan. Uning ijtimoiy-iqtisodiy ta‘siri tobora ortmoqda. Biroq ayrim hududlarda resurslarning adolatsiz taqsimlanishi, yoshlarning barcha qatlamlariga teng imkoniyatlar yetkazib berilishida muammoni yuzaga keltiradi. Shu sababli joylardagi yoshlar bilan ishlash tizimini yanada takomillashtirish, axborot texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish, yoshlar manfaatlarini ifoda etuvchi nodavlat tashkilotlar faoliyatini qo‘llab-quvvatlash dolzarb masala bo‘lib qolmoqda.

Xulosa:

Yangi O‘zbekiston davrida yoshlar siyosati mustahkam institutsional va huquqiy asosga ega bo‘ldi. U yoshlarning jamiyatdagi o‘rni, salohiyati va kelajakdagi liderlik qobiliyatini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Kelgusida bu siyosat yanada mukammallashib, O‘zbekiston taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchiga aylanishi kutilmoqda.

Yangi O‘zbekiston tomonidan amalga oshirish jarayonida yoshlar siyosati davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e‘tirof etiladi. Bu jarayon Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida tub o‘zgarishlar tizimili va samarali tus oldi. Davlat rahbari tashabbusi bilan “Yoshlar – kelajagimiz” davlat dasturi, “Temurbeklar maktabi”, “Yoshlar parlamenti”, “Yoshlar daftari”, “Yoshlar sanoat zonolari” kabilar amaliyotga joriy etildi. Bunday tashabbuslar yoshlarning ta‘lim va kasbga yo‘naltirilishini, ish bilan bandligini ta‘minlashga xizmat qilmoqda.

Yoshlarning faolligini nazorat qilish maqsadida “Yoshlar parlamenti”, “Yoshlar press-klublari” kabi platformalar tashkil etildi. Ular orqali bugungi avlodning fikrlari tinglanib, mavjud muammolari yechimi yuzasidan takliflar ishlab chiqilmoqda. Bularning barchasi demokratik jamiyat barpo etish yo‘lidagi muhim qadamlardir.

Shu bilan birga, yoshlar orasida huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish, yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish borasida ham keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. Mahallalarda yoshlar yetakchilari lavozimi joriy qilinib, joylardagi ijtimoiy muammolar tezda aniqlanib, bartaraf etilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Yangi O‘zbekiston davrida yoshlar siyosati chuqur tahlil, amaliy yondashuv va keng ko‘lamli dasturlar asosida olib borilmoqda. Bu esa, kelajakda har tomonlama barkamol, vatanparvar, bilimli va tashabbuskor yoshlar avlodining shakllanishiga mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Davlat va jamiyat oldidagi bunday mas‘uliyatli yondashuv yurtimiz taraqqiyotining eng muhim kafolatlaridan biridir.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. Rustambekov Islombek, Xo'jayev Shohjahon. Yangi O'zbekiston-yoshlarga yangi imkoniyatlar. (Rustambekov Islambek, Khojayev Shahjakhon. New Uzbekistan – new opportunities for young people) <https://yuz.uz/uz/news/yangi-ozbekiston--yoshlarga-yangi-imkoniyatlar>.
2. Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. **“O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz uch yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi** qaror. (Mirziyoyev Shavkat Miromonovich. “Decision on preparing and holding the thirty-third anniversary of the state independence of the Republic of Uzbekistan”) / https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-respublikasi-davlat-mustaqilligining-ottiz-uch-yillik-bayramiga-tayyorgarlik-korish-va-uni-otkazish-togrisida_617692
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining BMT 72-Sessiyasida so'lagan nutqi. (Speech of the President of the Republic of Uzbekistan at the 72nd Session of the UN). / <https://president.uz/oz/lists/view/1063>.
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari. (Information of the State Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan) / www.stat.uz.
5. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son). (Constitution of the Republic of Uzbekistan. (National Database of Legislative Information, 01.05.2023, No. 03/23/837/0241)).
6. <https://lex.uz/docs/-3026246?ONDATE=26.01.2022>
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3047-son qarori. – “Yoshlar ishlari agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”, 2017-yil. (. Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan No. PQ-3047. – “On the organization of the activities of the Youth Affairs Agency”, 2017.)
8. “Yoshlar – kelajagimiz” Davlat dasturi. – Toshkent, 2018. Yoshlar daftari. (State Program "Youth - Our Future". - Tashkent, 2018. Youth Notebook) / <https://yoshlardaftari.uz/>
9. “El-yurt umidi” jamg'armasi rasmiy sayti. (Official website of the "El-yurt Umidi" Foundation.) / www.eyuf.uz
10. Tursunov N. “Yoshlar siyosati: zamonaviy yondashuvlar va strategik maqsadlar”. – Toshkent, “Iqtisodiyot”, 2021. (Tursunov N. Youth policy: modern enterprises and strategic goals”. – Tashkent, “Economy”, 2021.)
11. Abdullayeva Z. “Yoshlar bilan ishlashning innovatsion usullari”. – “Ijtimoiy fanlar” jurnali, 2022, №3. (Abdullayeva Z. “Innovative methods of working with youth.” – Journal of “Social Sciences”, 2022, No. 3.)

ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 6 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 6

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 6

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадqiqот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000